

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Surxondaryo viloyati sharoitida kivini urug‘idan va qalamchasidan ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - kivi urug‘idan va qalamchasidan ko‘chat tayyorlash uchun maqbul muddatlar aniqlanadi; - turli mavsum va muddatlarda urug‘dan ko‘chat tayyorlash uchun zamonaviy tipdagi maxsus issiqxonalar quriladi; - Surxondaryo viloyati tuproq va iqlim sharoitiga mos kivi ko‘chatlari yetishtiriladi; - urug‘idan va qalamchasidan ko‘chatlar yetishtirishda innovatsion usullar qo‘llaniladi; - issiqxona va ochiq maydonda yetishtiriladigan kivi ko‘chatlarini sug‘orish uchun tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi o‘rnatiladi; - kivi ko‘chatlarini yetishtirish natijasida respublikamiz aholisining ko‘chatga bo‘lgan talabi taminlanadi va aholining real daromad hajmi ortadi Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.